

YER OSTI KONCHILIK ISHLARI JARAYONLARI

*Laziza Fozilova Olimovna**Navoiy viloyati Uchquduq tumani
Konchilik ishi*

Annotation: Ushbu maqolada yer osti konchilik ishlari jarayonlari, knchilik ishi faoliyatining asosiy ko'rinishlari, bosh ochuvchi lahimlar, konchlik korxonasini loyihalashda qurilish materiallari to'g'risida to'liq bayon qilingan.

Kalit so'zlar: yer osti konchilik faoliyati, konchlik korxonasi, lahimlar, qurilish materiallari, loyihalash.

Kirish:

Konchilik ishi insoniyat faoliyatining muhim ko'rinishlaridan biri bo'lib, hayot darajasi va sivilizasiyaning o'sishini ta'minlaydi. Kon ishlari sanoat ishlab chiqarishning yetakchi tarmog'i sifatida konlarni razvedka qilish, ularni qazib chiqarish, qazib olingan xom ashyni dastlabki qayta ishlash, konchilik korxonalari qurish va turli ishlarni bajarishga belgilangan yer osti inshoatlarni barpo qilish kabi ishlarni o'z ichiga oladi. Konchilik sanoati kon ishlari tarkibini tashkil etuvchi bo'g'in sifatida foydali qazilma konlarini qazib olish va ilk boyitish faoliyatlarinj amalga oshiradi.

Adabiyotlar tahlili va metodologiya:

Konchilik sanoati mamlakat xalq xo'jaligiga yoqilg'i qora, rangli va radioaktiv metallar rudalari, kon-kimyo xom ashylari, qurilish materiallari va boshqa xom ashylarini yetkazib beradi. Konchilik sanoatining takomillanishi davlat iqtisodiyoti va mudofaa quvvati, hamda mustaqilligini mustahkamlashda yuqori ahamiyatga egadir. O'zbekiston Respublikasi konchilik sanoati rivojlangan davlatlar qatorida yetakchi o'rnlarda turadi.

Bugungi kunda, konchilik amaliyotida oltingugurtni eritish, ko'mirni yer ostida yonuvchi gazga aylantirish va rangli metallarni yer ostida bakteriya -kimyoviy ta'sir etib, tanlab eritishga asoslangan geotexnologik qazish usullari qo'llanilmoqda. Binobarin, ularni hajmi juda kichik bo'lsada, iqtisodiy va ekollogik nuqtai nazaridan istiqbolli usullar sanaladi.

Konni ochish deb, yer yuzasidan ochuvchi kapital kon lahimlarini ruda tanasining barchasiga yoki uning bir qismiga o'tqazib, tayyorlovchi lahimlar o'tishga imkoniyat yaratilishiga aytildi. Ochuvchi lahimlar bu: shaxta stvollari, stvol oldi lahimlar majmui va kvershlaglar, kapital ruda tushiruvchi lahimlar, shtol'nyalar va boshqalar - qazilgan foydali qazilmalarni, ruda emas jinslarni, transport vositalarida yer ostidan yer yuzasiga chiqarish, kishilarni, uskunalarini, materiallarni ishlaydigan ish joyiga

etqazish, kon lahimlarini shamollatish, shaxtadagi yer osti suvlarini chiqarish va boshqa maqsadlar uchun xizmat qiladi.

Natijalar:

Bosh ochuvchi lahimlar - bular shaxta stvoli va shtol'nya. Bosh lahimlardan tashqari konni ochish uchun yordamchi stvollar ham o'tiladi, ular kon lahimlarini shamollatishga, konchilarni shaxtadan yer yuzasiga chiqarish uchun qo'shimcha chiqish lahimi sifatida xizmat qiladi, kvershlaglar, bosh va yordamchi stvollarini kon yotqizig'i bilan bog'laydi. Ruda tanasini alohida uchastkalarini va konning pastki chuqur garizotlarini ochish uchun ko'r stvollar, kapital vosstayushiyalar, uklonlar o'tiladi.

Muhokama:

Bosh ochuvchi lahimlar foydali qazilmalarni transport vositalarida yer yuzasiga tashib chiqarishga, konni shamollatishga, kishilarni yer ostida harakatlanishiga, materiallar, uskunalar tashib keltirishga va boshqa maqsadlar uchun xizmat qiladi. Ochuvchi lahimlar muhim ahamiyatga ega bo'lganligi uchun uzoq muddat xizmat qilishi nazarda tutilgan holda ularning shakli, ko'ndalang kesim yuzalarini to'g'ri tanlash muhim ahamiyatga ega.

Lahimlarni o'tish usullarini tanlashda, ularni o'tish, mustahkamlash va tamirlash faoliyatlariga sariflanadigan harajatlarning minimal miqdorda bo'lishiga va xizmat qilish muddati davomida yuk tashiydigan transport vositalariga va shamollatishga sarflanadigan harajatlar ham kam bo'lishligini ta'minlashni nazarda tutish lozim.

Xulosa:

Xulosa o'rnida shuni aytish mumkinki, kon-metallurgiya sanoati mahsulotlari ostida ilg'or jahon amaliyoti asosida yuqori qiymatli konchilik mahsulotlarini qazib chiqarish quvvatlarini tashkil qilish, unga uzviy bog'liq bo'lgan tarmoqlarni takomillashtirish, shuningdek mazkur yo'nalishning investitsiyaviy jozibadorligini oshirish konchilik sanoatiga bo'lgan talablarni to'la qonli tarzda to'ldira olishda izlanuvchan, yuqori amaliy va nazariy bilimga ega bo'lgan yosh mutaxasislarni yetishtirib chiqarishda oliy ta'liming o'rni beqiyosdir.

Adabiyotlar ro'yxati:

1. Sagatov N.X. Qatlamlı konlarni yer osti usulida qazib olish. O'quv qo'llanma. - T: Faylasuflar, 2016.
2. Misliboev I.T., Soliev B.Z. Jabborov O.I. Ma'danli konlarni yer osti usulida qazib olish. O'quv qo'llanma. – T: Faylasuflar, 2014
3. Nishonov, A. I, Toshtemirov, U. T. Yer ostida kon ishlarini bexatar olib borilishini ta'minlashning asosiy talablarlari ta'lim va rivojlanish tahlili. 2022.
4. Tursunov. U. T. Tabiiy resurslarni qazib olishda atrof-muhit muhofazasi. 2020.